

MENGNOR OLLOMUROD SHE'RIYATIDA IJTIMOYIY HAYOT MAVZUSI**Karshiyeva Xurshida Allaberdi qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20497727>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mengnor Ollomurod ijodining badiiy xususiyatlari, xususan, baxshiyona ohang va xalqona poetik tafakkurning she'riy ifodasi tahlil qilinadi.

Tadqiqotda shoirning "Farzand ato qil" she'ri misolida befarzandlik fojiasi, inson ruhiyatidagi iztirob, oilaviy dard va iltijo motivlarining poetik talqini yoritiladi. Maqolada she'rning mavzu va mazmun uyg'unligi, lirik qahramon ruhiyatining dramatik ochilishi, baxshi nutqi orqali ifodalangan xalqchil ohang hamda simvolik obrazlarning badiiy vazifasi ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, do'mbira obrazi, tabiat tasvirlari va takroriy hayqiriqlarning ruhiy-emotsional ta'siri ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Mengnor Ollomurod she'riyatida folklor estetikasi zamonaviy insonning ma'naviy va ruhiy iztiroblarini yorituvchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi.

Аннотация. В данной статье анализируются художественные особенности творчества Mengnor Ollomurod, в частности народно-поэтическое мышление и башкирская интонация в его поэзии. На примере стихотворения «Даруй ребёнка» исследуется поэтическое осмысление трагедии бездетности, духовных страданий, семейной боли и мотивов мольбы. В статье рассматриваются гармония темы и содержания, драматическое раскрытие внутреннего мира лирического героя, народный дух, выраженный через речь башки, а также художественная функция символических образов. Кроме того, раскрывается символическое значение образа домбры, картин природы и повторяющихся эмоциональных восклицаний. В результате исследования обосновывается, что в поэзии Менгнора Олломурода фольклорная эстетика выступает важным поэтическим средством отражения духовных и психологических страданий современного человека.

Abstract. This article analyzes the artistic features of the poetry of Mengnor Ollomurod, particularly the expression of folk poetic thinking and epic-bakhshi intonation. Using the poem "Grant Me a Child" as an example, the study explores the poetic interpretation of childlessness, spiritual suffering, family tragedy, and the motives of supplication in human life. The article examines the harmony between theme and content, the dramatic revelation of the lyrical hero's inner world, the folk tone expressed through the voice of a bakhshi, and the artistic function of symbolic images. In addition, the symbolic meaning of the dutar (dombra), depictions of nature, and repetitive emotional exclamations are analyzed from a literary and psychological perspective. The research concludes that in Mengnor Ollomurod's poetry, folklore aesthetics serve as an important poetic tool for expressing the spiritual and emotional sufferings of modern humanity.

Kalit so'zlar: Mengnor Ollomurod, lirik qahramon, baxshiyona, emotsiya, simvolik obraz, xarakter

Mengnor Ollomurodning ijodi, she'rlarining badiiyati, undagi obrazlilik, xalqona tilda ifodalangan yuksak g'oyaviylik, mavzu va mazmun uyg'unligi, janr shakllarining xilma-xilligi va uslubiy rang-baranglik Surxongagina xos baxshiyonalik bilan qorishgan shu bis ham uning she'rlarida ijtimoiy hayot mavzusi olamshumul g'oya kasb etadi.

Shoirning “Farzand ato qil” she’ri mavzu jihatidan insoniyatning eng qadimiy va eng og’riqli dardi — befarzandlik va nasl davomiyligiga bo’lgan ehtiyojga bag’ishlangan. Bu yerda mavzu — iltijo va nola bo’lsa, mazmun — inson ruhiyatining fojiviy darajadagi inqirozidir.

FARZAND ATO QIL

(Mamatraim baxshining so’zlagani turkumidan)

Tovman, lekin qaytay, suygan lolam yo’q,

Bovrim huvillaydi, bir shalolam yo’q,

Olam to’la bola, mening bolam yo’q...

U-u Xudo, o-oh Xudo, farzand ato qil!!

She’r sarlavhasidayoq ta’kidlanganidek, bu turkumda baxshiyona ohang ustuvor. Shoir oddiy lirik qahramon tilidan emas, balki el orasida dardi bilan tanilgan baxshi tili bilan so’zlaydi.

“Olam to’la bola, mening bolam yo’q...” misrasida olamning kengligi va qahramon dunyosining torligi (bolasizligi) o’rtasidagi ziddiyat mazmunning asosini tashkil etadi.

Xotanim kichrayib yo’q bo’lib borar,

Suyagi charsillab cho’g’ bo’lib borar,

o’y yurakka tekkan o’q bo’lib borar.

U-u Xudo, o-oh Xudo, farzand ato qil!!

Ayol qismati va lirik psixologizm she’rning markaziga ko’chadi, qahramon o’zidan ko’ra ayolining og’riqlaridan iztirob tuyadi. “Xotanim kichrayib yo’q bo’lib borar, Suyagi charsillab cho’g’ bo’lib borar” satrlari ayol kishini ich-ichidan qanday kemirishi, uni ma’naviy va jismoniy jihatdan “cho’g’”ga aylantirishi haqidagi dahshatli haqiqatni ochib beradi.

Mazmun — ayolning ona bo’la olmaslik dardi oldidagi ojizligini ko’rsatishga qaratilgan.

Bolasini suyib qushlar biyrondir,

Paloponlar tomchi suvdan sayrondir,

Mening saltanatim, mulkim vayrondir...

U-u Xudo, o-oh Xudo, farzand ato qil!!

Mengnor Ollomurod she’riyatiga xos jihatlardan biri simvolik obrazlar va tabiat ziddiyatidir. Mazkur mavzudagi she’rda ham shoir tabiatdagi qushlarning o’z bolasini suyib sayrashini, qahramonning esa “saltanati va mulki vayron” ekanligini taqqoslaydi. Tabiatdagi hayotiy muvozanat va qahramon taqdiridagi nomutanosiblik mavzu va mazmun uyg’unligini ta’minlaydi.

Ko’nglimni ovlaydi har jonajonim,

Chor tarafga qarar kelgan mehmonim,

Qiyqiriq sho’xlik yo’q, yo’q mening jonim...

U-u Xudo, o-oh Xudo, farzand ato qil!!

She’rning har bir bandi “U-u Xudo, o-oh Xudo, farzand ato qil!!” degan hayqiriq bilan yakunlanadi. Bu — shunchaki so’z emas, balki qahramonning so’nggi umid nuqtasi. Bu yerda mavzu (iltijo) mazmun bilan (Yaratganga isyon va ayni paytda tiz cho’kish) to’liq birlashgan.

Mengnor Ollomurodning baxshiyona turkumidagi she’rlari shuni ko’rsatadiki, ijodkor folklor estetikasidan faqat shakl sifatida emas, balki fojiviy mazmunni xalqchil ifodalash vositasi sifatida foydalanadi.

Bilmayman, nimani ko’zlab yashayman,

o’z g’amim o’zimga so’zlab yashayman,

o’zimni o’zim yeb-bo’zlab yashayman,

U-u Xudo, o-oh Xudo, farzand ato qil!!

Do‘mbira obrazi ham bejiz qo‘shilmagan. Shoir milliylikni baxshi tilidan aytilayotgan she‘rda sinchkovlik namoyish etadi. Shoir dahosining kichik elementlarga ham e‘tibor bilan yondashishidan fahmlash mumkin.

Oxirgi banddagi “Bola bo‘lolsan, singil dumbira” misrasi juda teran simvolik ma‘noga ega. Baxshi uchun do‘mbira — yagona sirdosh, ammo u baribir bolaning o‘rnini bosa olmasligi, insoniy dardning san‘at bilan ham ovunmasligi mazmuniy yakun yasaydi.

Uch yuz oltmish tomirim, uzil, zirqira,

Dunyo, ko‘zlarimdan sitil, sirqira,

Bola bo‘lolsan, singil do‘mbira,

U-u Xudo, o-oh Xudo, farzand ato qil!!

“Farzand ato qil” she‘rida ijtimoiy-biologik mavzu yuksak badiiy-psixologik mazmun bilan uyg‘unlashib, kitobxonni lirik qahramonning ichki dunyosiga butunlay kirib borishiga majbur qiladi.